

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING TA'LIM MUASSASALARI BILAN
HAMKORLIGINING ASOSIY YO'NALISHLARI****Bekanov Miyribek Imamatdin uli***O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorligining asosiy yunalishlari mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-xuquqiy asoslari hamda ushbu soxada hozirgi kundagi chet el tajribasini o'rganib avzallik va qulay tomonlarini amaliyotga tatbiq etish va ushbu soxada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные направления сотрудничества инспекторов профилактики с образовательными учреждениями, их суть, значение и особенности, а также организационно-правовые основы. Кроме того, исследуется зарубежный опыт в данной сфере, анализируются его преимущества и возможности практического применения, а также рассматриваются меры, направленные на устранение существующих проблем и недостатков в этой области.*

Annotation: *In this article, the main directions of cooperation between preventive inspectors and educational institutions, their essence, importance, and distinctive features, as well as the organizational and legal foundations are discussed. It also examines the current foreign experience in this field, analyzes its advantages and applicable aspects, and suggests measures to address existing problems and shortcomings in this area.*

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda mamlakatimiz ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, ta'lim oluvchilarning

kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida:

ASOSIY YO'NALISHLARI:

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydongac hiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish; dunyomiqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh beraoladigan milliy ta'lim tizimini yaratish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish; ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalar vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik, idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlarining birinchi rahbarlari zimmasiga dasturda belgilangan tadbirlarning o'zvaqtida va sifatli amalga oshirilishi bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Xalq ta'limi vazirligi:

a) 2021 yil 1 martga qadar malakali pedagog, ilmiy xodimlar, psixolog va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Milliy o'quv dasturini (keying o'rinlarda – Dastur) ishlab chiqsin va unda quyidagilarni nazarda tutsin:

o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malakatalablarini sinflar kesimida ishlab chiqish; fanlararo o'zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka

to'liq rioya qilgan holda o'quv dasturlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash; yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftariga mul'timedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish;

o'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetentsiya hamda shaxsiy sifatlarini baholash tizimini joriy etish;

b) 2021 yil 1 mayga qadar Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda Dasturni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari da ekspertizadan hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishini ta'minlasin;

v) Dasturning 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy qilinishini ta'minlasin.

Belgilab qo'yilsinki, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish maqsadida 2021 yil 1 yanvardan boshlab Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan:

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, tayanch, variativ o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqiladi hamda darslik va o'quv qo'llanmalari tajriba-sinovdan o'tkaziladi;

XULOSA

Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasiga asosan muallif va tuzuvchilar tanlab olinadi hamda darslik va o'quv metodik majmualarning maketlari yaratiladi. Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyul' dagi "Birlashgan millatlar tashkilotining bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'rida"gi 597 sonli qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" PQ-2896 sonli Qarori.

3. Гадоймиров Б., Ўзоқбоев Ш. Вояга етмаганлар ўртасида содир этилаётган жиноятлар тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 9-15.

4. Гадоймиров Б. О. Вояга етмаганлар маъмурий жавобгарлигининг бугунги кунда долзарблиги //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 90-95.